



QISHLOQ XO'JALIGI EKin YER MAYDONLARIDAN FOYDALANISH TENDENSIYASI

Jurayeva Nilufar Shokat qizi
Qarshi Davlat texnika universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi ekin yer maydonlaridan foydalanish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqotda yer fondi tarkibi, qishloq xo'jaligi yer maydonlarining holati bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Statistik ma'lumotlar asosida 2015–2025-yillar oralig'ida ekin maydonlari dinamikasi o'rganilgan. Shuningdek, yer resurslaridan samarali foydalanish, raqamli monitoring tizimlarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari yer resurslarini boshqarishda barqarorlikni ta'minlash va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, sug'oriladigan yerlar, lalmi yerlar, suv resurslari, prognoz, iqlim o'zgarishi, zaxira yerlar, raqamli monitoring.

Аннотация. В данной статье проанализированы тенденции использования посевных сельскохозяйственных земель в Республике Узбекистан. В исследовании приведены данные о структуре земельного фонда и состоянии сельскохозяйственных угодий. На основе статистических материалов изучена динамика посевных площадей за период 2015–2025 годов. Кроме того, разработаны рекомендации по эффективному использованию земельных ресурсов и внедрению систем цифрового мониторинга. Результаты исследования направлены на обеспечение устойчивого управления земельными ресурсами и укрепление продовольственной безопасности.



Ключевые слова: сельское хозяйство, орошаемые земли, богарные земли, водные ресурсы, прогноз, изменение климата, запасные земли, цифровой мониторинг.

Abstract. This article analyzes the trends in the use of agricultural cropland in the Republic of Uzbekistan. The study provides data on the structure of the land fund and the condition of agricultural lands. Based on statistical materials, the dynamics of cultivated areas for the period 2015–2025 were examined. In addition, recommendations were developed for the efficient use of land resources and the implementation of digital monitoring systems. The results of the study are aimed at ensuring sustainable land management and strengthening food security.

Key words: agriculture, irrigated lands, rainfed lands, water resources, forecast, climate change, reserve lands, digital monitoring.

Kirish. Jahon yer fondi bugungi kunda 13,4 mlrd. gektarni tashkil qiladi, shundan 11 % i, ya'ni 1,5 mlrd. gektarga yaqini iqtisodiy jihatdan ishlab chiqarish uchun qulay hisoblanadi. Yildan-yilga tabiiy, antropogen jarayonlar va omillar ta'sirida miqdori hamda sifati kamayib bormoqda. Demak cheklangan qishloq xo'jaligida foydalanish uchun yaroqli yer resurslaridan samarali foydalanish, ularning hisobini oqilona yuritish, noqishloq xo'jalik maqsadlari uchun ajratilishini oldini olish yer resurslaridan foydalanishda bugungi kunning dolzarb muammosi sifatida mamlakatimiz hamda jahon hamjamiyatida eng muhim va yuqori o'rindagi masala bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy chegarasidagi umumiy yer maydoni 2025-yil 1-yanvar holatiga 44 892,4 ming ga, shu jumladan sug'oriladigan yerlar 4 268,7 ming ga tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududi sharqdan g'arbgacha 1 425 km, shimoldan janubgacha esa 930 km tashkil etadi. Respublika besh ta mamlakat bilan shimolda va shimoliy-sharqda Qozog'iston, sharqda va janubiy-sharqda



Qirg'iziston va Tojikiston, g'arbda Turkmaniston, janubda esa Afg'oniston bilan chegaradoshdir. Davlat chegarasining Afg'oniston bilan uzunligi – 137 km, Qozog'iston – 2 203 km, Qirg'iziston – 1 099 km, Tojikiston – 1 161 km va Turkmaniston bilan – 1 621 km²

Hozirgi davrda mamlakatimiz miqyosida 25 849,6 ming gektar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'lib, shundan sug'oriladigan yerlar maydoni 4 385,1 ming gektar, sug'orilmaydigan lalmi yerlar maydoni esa 768,3 ming gektarni tashkil qiladi. Bu esa sug'oriladigan hamda lalmi yerlardan samarali foydalanish va doimiy nazoratni tashkil etishni taqozo etmoqda.

Respublikamizda yer fondidan foydalanishni boshqarish va nazorat qilish, yer munosabatlarini takomillashtirish hamda yerga oid siyosatni amalga oshirish vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi 8-moddasiga asosan yer fondi quyidagi toifalarga bo'linadi

1) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar – qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yoki ana shu maqsadga mo'ljallangan yerlar. O'zbekiston Respublikasi yer fondining asosiy toifasi hisoblanadi va ushbu toifaning jami maydoni 26 220,7 ming ga yoki Respublika umumiy maydonining 58,41% tashkil etadi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar sug'oriladigan va sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlarga, shuningdek, haydaladigan ekin yerlar, bo'z yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, mevali daraxtlar va uzumzorlar egallagan yerlarga bo'linadi;

2) aholi punktlarining yerlari – shaharlar va shaharchalar, shuningdek, qishloq aholi punktlari chegarasi doirasidagi yerlar (ushbu toifaning jami maydoni 221,7 ming ga yoki Respublika umumiy maydonining 0,5%ini tashkil etadi);



3) sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar – ko'rsatilgan maqsadlarda foydalanish uchun yuridik shaxslarga berilgan yerlar (ushbu toifaning jami maydoni 798,9 ming ga yoki Respublika umumiy maydonining 1,8% tashkil etadi);

4) tabiatni muhofaza qilish, sog'lom-lashtirish va rekreasiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar – muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, ustuvor ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsiya va sanitariya-sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar (ushbu toifaning jami maydoni 4 258,6 ming ga yoki Respublika umumiy maydonining 9,49% tashkil etadi);

5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar – moddiy madaniy meros obyektlari joylashgan yerlar (ushbu toifaning jami maydoni 32,4 ming ga yoki Respublika umumiy maydonining 0,07% tashkil etadi);

6) o'rmon fondi yerlari – o'rmon bilan qoplangan, shuningdek, o'rmon bilan qoplanmagan bo'lsa ham, o'rmon xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlar (ushbu toifaning jami maydoni 10 967,7 ming ga yoki Respublika umumiy maydonining 24,4% tashkil etadi);

7) suv fondi yerlari – suv obyektlari, suv xo'jaligi inshootlari egallagan yerlar va suv obyektlarining qirg'oqlari bo'ylab ajratilgan yerlar (ushbu toifaning jami maydoni 1 041,3 ming ga yoki Respublika umumiy maydonining 2,32% tashkil etadi);


8) zahira yerlar – yuqorida ko'rsatilgan yer fondi toifalariga kiritilmagan barcha yerlar (ushbu toifaning jami maydoni 1351,0 ming ga yoki Respublika umumiy maydonining 3,01% tashkil etadi).



1-jadval. Respublika bo'yicha barcha turdagi yerdan foydalanuvchilar ixtiyorida yerlarni o'zgarish dinamikasi (ming, ga).


Yillar	Umumiy yer maydoni	Shundan suvli	Ekin yerlar			Ko'p yillik daraxtzorlar		Bo'z yerlar			Pichanzor	
			jami	suvli	lalmi	jami	suvli	jami	suvli	lalmi	jami	suvli
1991	44797,7	4230,9	4090,4	3330,8	759,6	378,2	366,4	71,8	27	44,8	111	24,5
1992	44797,7	4236,6	4090,2	3323,1	767,1	380	367,9	72,5	28,4	44,1	109,3	24,6
1993	44797,7	4260,5	4092	3330,3	761,7	381,1	367,8	71,5	28,1	43,4	109,4	24,8
1994	44457,9	4280,6	4092	3332,8	759,2	379,6	366,1	63,8	31,4	32,4	109,6	25,1
1995	44457,9	4297,9	4092,8	3339,4	753,4	374,5	361,0	69,2	36	33,2	109,4	25,0
1996	44455	4303,5	4092,3	3338,5	753,8	370,1	356,7	71,9	38,3	33,6	107,5	23,3
1997	44405	4283,8	4087,9	3329,6	758,3	365,2	351,4	78	44,7	33,3	107,0	22,7
1998	44405	4275,8	4077	3317,3	759,7	355,7	342,5	77,8	43,6	34,2	112	27,7
1999	44410,3	4277,6	4061,9	3313,6	748,3	352,9	339,7	80,7	46,5	34,2	112,1	27,7
2000	44410,3	4273,3	4056,6	3308,3	748,3	346,9	332,3	82,8	48,4	34,4	112,3	27,6
2001	44410,3	4278,8	4056,2	3309,4	746,8	342,6	328,1	85,6	48,9	36,7	111,2	27,6
2002	44410,3	4278	4052,7	3307,4	745,3	336,4	323,1	85	48,4	36,6	101,3	27,1
2003	44410,3	4275,3	4042,7	3297,7	745	337	323,5	84,5	48,3	36,2	101,3	27,1
2004	44410,3	4279	4049	3296,3	752,7	338,8	325,3	83,9	48,1	35,8	101,6	27,1
2005	44410,3	4295,3	4057,2	3303,6	753,6	335,8	322,7	83,6	48,4	35,2	101,7	27,1
2006	44410,3	4303	4064,2	3308,5	755,7	339,0	325,5	82,6	48,3	34,3	106,6	27,1
2007	44410,3	4305,3	4068,6	3310,7	757,9	342,3	329	82,5	48,3	34,2	106,7	27,1
2008	44410,3	4311,6	4071,2	3313,9	757,3	344	329,8	82,5	47,8	34,7	106,6	27,1
2010	44410,3	4313,1	4071	3313,1	757,9	350,9	336,1	80,5	46,9	33,6	106,6	27,1
2011	44410,3	4312,3	4064,7	3307,3	757,4	356,7	341,5	80,4	47	33,4	106,5	27,1
2012	44410,3	4312,2	4062,5	3305,2	757,3	358,3	343	80,4	47,1	33,3	106,5	27,1
2013	44410,3	4314,4	4055,3	3298,5	756,8	367,9	351,5	80,4	47,1	33,3	106,4	27,1
2014	44892,4	4308,1	4043,6	3288,5	755,1	371,9	354,1	80,3	46,9	33,4	106,5	27,1
2015	44892,4	4312,4	4040,8	3284,5	756,3	380,8	362,4	80	46,9	33,1	105,1	27,1
2016	44892,4	4312,9	4035,3	3279,4	755,9	385,6	367	79,9	46,8	33,1	105,1	27,1
2017	44892,4	4311,5	4026,4	3271,7	754,7	391,6	371,7	80,8	47,8	33,0	105,1	27,1
2016	44892,4	4306,6	4019,8	3262,2	757,6	398	376,3	80,7	47,7	33	104,9	27,1
2019	44892,4	4329	4033,5	3259,9	773,6	403,8	380,5	83,7	48,7	35	102,2	27,1
2020	44892,4	4331,7	4022,9	3252,1	770,8	415,2	386,5	83,6	48,6	35	102,2	27,1
2021	44892,4	4336,6	4016,1	3247,9	768,2	421,4	390,0	86,6	51,6	35	101,1	26,1
2022	44892,4	4336,1	4028,5	3242,1	786,4	438,5	394,8	86,6	51,6	35	101,1	26,1
2023	44892,4	4342,5	4028,6	3245,1	783,5	445,3	401	84,3	49,3	35	101,1	26,1
2024	44892	4385,1	4046,7	3278,4	768,3	455,1	410,6	83,6	48,4	35,2	101	26,1

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 1-yanvardagi yer hisoboti ma'lumotlariga asosan, Respublikamiz hududida sug'oriladigan ekin yerlar 3 278,4 ming gektarni tashkil qiladi (1-rasm).



1-rasm. Sug'oriladigan ekin yerlar va ularning viloyatlar bo'yicha taqsimlanishi.(ming, ga).

1-jadval ma'lumotlarini tahliliga ko'ra, respublika bo'yicha 2015-2025 yil vaqt oralig'ida sug'oriladigan ekin yerlar maydoni 9800 gektarga kamayganligi aniqlandi. Xususan Qoraqalpog'iston Respublikasi 2300, Buxoro 7600, Qashqadaryo 6000, Navoiy 2400, Surxondaryo viloyatida 19000, Toshkent shahar 1400 gektarga oshganligi, Andijon 3200, Jizzax 1400, Namangan 9000, Samarqand 5900, Sirdaryo 1400, Toshkent 15100, Farg'ona 7500 hamda Xorazm 4600 viloyatlarida sug'oriladigan ekin yerlar kamayish holatlari aniqlandi (2-rasm).



2-rasm. Respublika miqyosida sug'oriladigan ekin yerlar o'zgarish dinamikasi. (2015-2025 vv.)

2-jadval. Respublika miqyosida sug'oriladigan ekin yerlarning tahlili (ming.ga).

Xududlar nomi	Tegishli yillarning 1 yanvar holatiga yer maydonlari										
	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Qoraqalpog'iston Respublikasi	417	418,1	418	418,5	418,3	418,5	418,5	418,9	418,8	418,8	419,3
Andijon	202,7	203	202,5	202,4	202,1	200,6	200,4	200,4	200,1	200,1	199,5
Buxoro	200,8	200,8	201,2	199,7	199,5	200,1	200,1	200,1	200,1	205,8	208
Jizzax	262,1	261,4	261,1	260,7	258,8	259,9	260	259,2	259,9	260,6	260,7
Qashqadaryo	420,4	420,5	420,5	419,8	417,6	417,3	417,3	417,3	417,3	417,4	426,4
Navoiy	90,7	91,1	91,4	91,7	91,7	92	92	91,9	91,4	91,2	93,1
Namangan	194,5	193,1	192,5	191,5	190	188,2	186	186	185	184,8	185,5
Samarqand	252,8	251,9	248,9	246,5	247	246,9	246,7	245,9	243,1	243,7	246,9
Surxondaryo	241	240,9	240,4	239,9	239,3	238,6	238,6	238,4	238,4	238,5	260
Sirdaryo	250,3	249,8	249,7	249,9	249,4	249,2	249	249	248,9	248,8	248,9
Toshkent	301,7	299,5	298,9	297,8	295,7	295,7	292	289,9	289,5	290	286,6
Farg'ona	247,8	247,7	247,7	247,7	247,5	247,6	245	243,2	242	242	240,3
Xorazm	206	206,3	206,2	205,5	205,2	205,3	205,3	205,3	205,3	201,1	201,4
Toshkent.sh	0,4	0,4	0,4	0,1	0,1		1,2	2,4	2,3	2,3	1,8
Jami:	3288,2	3284,5	3279,4	3271,7	3262,2	3259,9	3252,1	3247,9	3242,1	3245,1	3278,4



3-jadval. Respublika bo'yicha 2025-yilda qayta foydalanishga kiritiladigan va o'zlashtiriladigan yer maydonlarining prognoz ko'rsatkichlari (gektar).

T/r	Hududlar	2025 yilda foydalanishga kiritiladigan yer maydoni	Shundan:		
			Sug'oriladigan maydonlarni qayta foydalanishga kiritish hisobidan	Yer osti suv zaxirasidan foydalangan holda lalmi-yaylov maydonlarni o'zlashtirish hisobidan	Lalmi-yaylov maydonlarga suv talab qilmaydigan ekinlarni joylashtirish hisobidan
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	8 745	8 745		
2	Andijon	6 500	5 700		800
3	Buxoro	20 000	8 660	11 340	
4	Jizzax	7 323	1 403	5 920	
5	Qashqadaryo	5 000	2 300	700	2 000
6	Navoiy	20 000	1 432	3 006	15 562
7	Namangan	7 000	6 119	881	
8	Samarqand	7 042	174	3 753	
9	Surxondaryo	5 518		5 518	3 114
10	Sirdaryo	2 507	2 350	157	
11	Toshkent	4 147	30	169	3 948
12	Farg'ona	3 110	2 450	660	
13	Xorazm	3 375	1 375	2 000	
		100 267	40 738	34 105	25 424

O'zbekiston Respublika Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" 5742-sonli Farmoniga [1.3] ko'ra 2025-yilda qishloq xo'jaligida foydalanishdan chiqib ketgan sug'oriladigan yerlar, shuningdek, lalmi va o'rmon fondi yerlarining meliorativ holati va suv ta'minotini yaxshilash maqsadida davlat dasturlari doirasida keng ko'lamli irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda agrar sohada ham qishloq xo'jaligi yerlarini monitoring qilish, uning ko'lamini kengaytirish bo'yicha bir qator ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Amaliyotda qator texnik va texnologik yechimga ega bo'lgan ishlanmalar ham qo'llanilmoqda, shu jumladan masofadan zondlash eng xolis va tezkor bir vaqtning o'zida olingan



tasvirlar asosida ma'lumotlarni kuzatish, yig'ish va qayta ishlash tizimlari, yerdan foydalanishni, ekinlarning joylashishi va hosilning potensial hajmini taxmin qilish imkonini beradigan dastur hisoblanadi.

Xulosa. Qishloq xo'jaligi ekin yer maydonlaridan foydalanish tendensiyasini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda yer resurslaridan samarali foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ekin maydonlarining tarkibida o'zgarishlar kuzatilmoqda, bunda suv resurslari taqchilligi, iqlim o'zgarishlari va iqtisodiy omillar muhim rol o'ynamoqda. Samaradorlikni oshirish uchun yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish zarur. Shuningdek, zamonaviy masofadan zondlash va raqamli monitoring usullarini qo'llash orqali yer resurslarining holatini aniqlash, ularning unumdorligini saqlash va tiklash bo'yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyati yaratiladi. Shu bois, qishloq xo'jaligi ekin yerlaridan oqilona va barqaror foydalanish mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5742-son Farmoni.
2. Kadastr agentligi davlat kadastrlari palatasining Milliy hisoboti. - Toshkent, 2025.
3. R.Sharopov. "Raqamli texnologiyalar va ularning lalmi yerlar monitoringini yuritishdagi afzalliklari". O'zbekiston zamini Ilmiy-amaliy va innovatsion jurnali. 2025, №2. – B. 40-45.
4. A.Jolivot, V.Lebourgeois, L.Leroux, M.Ameline. "Harmonized in situ datasets for agricultural land use mapping and monitoring in tropical



countries". Earth System Science Data. Articles Volume 13, issue 12, ESSD, 13, 5951–5967, 2021

5. <http://faolex.fao.org>.